

# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

9 ЖИЛД, 2 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 9, НОМЕР 2

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 9, ISSUE 2



# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES  
№2 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2026-2>

**Бош муҳаррир:**  
**Главный редактор:**  
**Chief Editor:**  
**Сеитов Азамат Пулатович**  
доктор социологических наук  
(Doctor of sociology, DSc)

**Бош муҳаррир ўринбосари:**  
**Заместитель главного редактора:**  
**Deputy Chief Editor:**  
**Сабирова Умида Фархадовна**  
доктор социологических наук  
(Doctor of sociology, DSc)

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.  
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.  
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

**Бекмурад Мансур Бобомурадovich**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Каланов Комил Куллахматович**  
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Убайдуллаева Раиса Турсуновна**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Негматова Шахзода Шухратовна**  
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)  
**Шайылдаева Асель Кокоевна**  
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

**Исмаилов Алишер Агзамович**  
доктор экономических наук, (Узбекистан)  
**Щепилова Галина Германовна**  
доктор философских наук, профессор (Россия)  
**Рожанский Михаил Яковлевич**  
кандидат философских наук (Россия)  
**Маматов Нормурат**  
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)  
**Бурнашев Рустам Ренатович**  
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи  
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни  
Social structures, social institutions and way of life

**Умаров Абсалом Адилевич**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Холбеков Абдугани Жуманазарович**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)  
**Акулич Мария Михайловна**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)

**Антонио Алонсо Марсос**  
доктор политических наук, профессор (Испания)  
**Фадеева Любовь Александровна**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)  
**Виктор Агаджаньян**  
доктор философии по социологическим наукам,  
профессор (США)  
**Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллович**  
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.  
Социология социального сознания и социального процесса.  
Sociology of social consciousness and social process

**Аликариев Нуритдин Сапаркариевич**  
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)  
**Матибаев Тасполат Балтабаевич**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Николов Стефан**  
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

**Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович**  
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)  
**Ли Ци**  
доктор исторических наук, профессор (Китай)  
**Сухомлинова Марина Валерьяновна**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)

[www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz) решают задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счет внедрения достижений научных исследований ученых и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

# ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ | РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ | EDITORIAL TEAM:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.  
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.  
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

**Пармонов Фарход Ярашевич**

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Жусубалиев Абдикайым Рысбаевич**  
кандидат социологических наук, доцент (Кыргызстан)  
**Алимухамедова Нодира Ядгаровна**  
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

**Камалова Хатира Сабыровна**

кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Тагиева Гулсум Гафуровна**  
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)  
**Ахмедова Феруза Медетовна**  
доктор философии по социологическим наукам (PhD)  
(Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи  
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни  
Social structures, social institutions and way of life

**Аликариева Аълохон Нуриддиновна**

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Зайтов Элёр Холмаматович**  
доктор философии по социологическим наукам,  
доцент (Узбекистан)  
**Уразалиева Гулшода Бекпұлатовна**  
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

**Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович**

доктор философии по социологическим наукам,  
доцент (Узбекистан)  
**Қаюмов Қахрамон Нозимжонович**  
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)  
**Махкамов Қодиржон Одилжонович**  
доктор философии по социологическим наукам,  
доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.  
Социология социального сознания и социального процесса.  
Sociology of social consciousness and social process

**Сеитова Зухрагон Пиржановна**

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Доспанова Дилара Уракбаевна**  
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Рахимбаева Дилбархон Абдулхамитовна**  
кандидат философских наук, доцент (Узбекистан)

**Каримов Бобир Шаропович**

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Якубов Ильдар Харрасович**  
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)  
**Абдухалилов Абдулло Абдухамитович**  
доктор философии по социологическим наукам,  
доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

МАҚОЛАДА КЕЛТИРИЛГАН ДАЛИЛЛАРНИНГ ТЎҒРИЛИГИ УЧУН МУАЛЛИФ МАСЪУЛДИР | АВТОР НЕСЕТ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ ЗА ДОСТОВЕРНОСТЬ ФАКТОВ ИЗЛОЖЕННЫХ В СТАТЬЕ

# МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT


<b>1. Бекмуродов Мансур</b> IJTIMOIY-MA'NAVIY MUHITNI SOG'LOMLASHTIRISHDA FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARI ROLI.....	5
<b>2. Сеитов Азамат, Вахидов Имран</b> РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ИНСТРУМЕНТОВ В УЧЕБНОМ ПРОЦЕССЕ ОБУЧАЮЩЕЙСЯ МОЛОДЕЖИ В КОНТЕКСТЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ПОЛИТИКИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	16
<b>3. Латипова Нодира, Турсунов Рустам, Кара Шохсанам</b> ВОСПРИЯТИЕ НАСИЛИЯ И ЕГО СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПОСЛЕДСТВИЯ.....	25
<b>4. Karimov Bobir</b> YOSH RAHBARLARDA KREATIV VA TANQIDIY FIKRLASH KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING SOTSIOLOGIK XUSUSIYATLARI.....	33
<b>5. Сабирова Умида, Эрбаева Диёра</b> ГЕНДЕРНОЕ РАВЕНСТВО В СЕМЕЙНЫХ ОТНОШЕНИЯХ И ГАРМОНИЗАЦИЯ ТРУДОВОЙ И СЕМЕЙНОЙ РОЛИ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	40
<b>6. Zaitov Elyor</b> O'ZINI O'ZI BOSHQARISH INSTITUTLARI TRANSFORMATSIYASINING INSTITUTIONAL ASOSLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	46
<b>7. Хидиров Сухроб</b> ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН ШАРОИТИДА МИЛЛАТЛАРАРО СТЕРЕОТИПЛАРНИНГ ИЖТИМОЙ ХАВФСИЗЛИККА ТАЪСИРИ (ЭМПИРИК ТАДҚИҚОТЛАР АСОСИДА)...	54
<b>8. Ixtiyarov Farxod</b> RAQAMLI JAMIYAT FENOMENINING SOTSIOLOGIK ASOSLARI.....	60
<b>9. G'oyibov Elyor</b> O'ZINI O'ZI TAKOMILLASHTIRISH (SELF-MANAGEMENT) OMILINI RIVOJLANISHINING GURUHIY DINAMIKASIGA TA'SIRI.....	67
<b>10. Ibragimov Murodjon</b> YOSHLAR TASHKILOTLARINING KOMMUNIKATIV FAOLIYATNI TASHKIL ETISHDA IJTIMOIYLAHUV OMILINING O'RNI.....	73
<b>11. Husenov Sirojiddin</b> “HAR BIR OILA TADBIRKOR” IJTIMOIY HARAKATIDA MOTIVATSIYA, KO'NIKMA VA MOLIYAVIY KO'MAK TIZIMI.....	82
<b>12. Tadjibayeva Venera</b> BOQIMANDALIK TUSHUNCHASINING SOTSIOLOGIK MAZMUN-MOHİYATI.....	89

# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

## ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

**Husenov Sirojiddin,**  
“Octobank”, ilmiy izlanuvchi  
e-mail: sirojiddin\_husenov@gmail.com

### “HAR BIR OILA TADBIRKOR” IJTIMOYIY HARAKATIDA MOTIVATSIYA, KO‘NIKMA VA MOLİYAVIY KO‘MAK TIZIMI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.20064416>

#### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada “Har bir oila tadbirkor” ijtimoiy harakati doirasida aholining iqtisodiy faolligini oshirish mexanizmlari sotsiologik yondashuv asosida tahlil qilingan. Unda motivatsiya, kasbiy ko‘nikmalar va moliyaviy qo‘llab-quvvatlash tizimining o‘zaro bog‘liqligi hamda ularning tadbirkorlik rivojiga ta’siri ilmiy jihatdan yoritilgan. Shuningdek, institutsional omillar, davlat siyosatining roli va ijtimoiy ishonch darajasining ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalari kompleks yondashuvning samaradorligini asoslab beradi hamda nazariy yondashuvlar va amaliy takliflar ishlab chiqarilgan. Mazkur maqolada “Har bir oila tadbirkor” ijtimoiy harakati doirasida motivatsiya, ko‘nikma va moliyaviy ko‘mak tizimining o‘zaro bog‘liqligi hamda ularning oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, bandlikni oshirish va aholi daromadlarini barqarorlashtirishdagi roli sotsiologik jihatdan tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** tadbirkorlik, motivatsiya, ko‘nikma, moliyaviy ko‘mak, ijtimoiy siyosat, institutsional yondashuv, oila, iqtisodiyot, bandlik.

**Хусенов Сирожиддин,**  
“Октобанк”, соискатель  
e-mail: sirojiddin\_husenov@gmail.com

### СИСТЕМА МОТИВАЦИИ, НАВЫКОВ И ФИНАНСОВОЙ ПОДДЕРЖКИ В СОЦИАЛЬНОМ ДВИЖЕНИИ «КАЖДАЯ СЕМЬЯ – ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬ»

#### АННОТАЦИЯ

В данной статье на основе социологического подхода проанализированы механизмы повышения экономической активности населения в рамках социального движения «Каждая семья – предприниматель». Освещена взаимосвязь системы мотивации, профессиональных навыков и финансовой поддержки, а также их влияние на развитие предпринимательства. Кроме того, раскрыта роль институциональных факторов, государственной политики и уровня социального доверия. Результаты исследования обосновывают эффективность комплексного подхода и включают разработку теоретических положений и практических рекомендаций. В данной статье социологически анализируется взаимосвязь мотивации, навыков и системы финансовой поддержки в рамках социального движения «Каждая семья – предприниматель», а также их роль в развитии семейного предпринимательства, повышении занятости и стабилизации доходов населения.

**Ключевые слова:** предпринимательство, мотивация, навыки, финансовая поддержка, социальная политика, институциональный подход, семья, экономика, занятость.

**Husenov Sirojiddin,**  
“Octobank”, Researcher  
e-mail: sirojiddin\_husenov@gmail.com

## THE SYSTEM OF MOTIVATION, SKILLS, AND FINANCIAL SUPPORT IN THE SOCIAL MOVEMENT “EVERY FAMILY IS AN ENTREPRENEUR”

### ABSTRACT

This article analyzes the mechanisms for increasing the economic activity of the population within the framework of the social movement “Every Family is an Entrepreneur” based on a sociological approach. It examines the interconnection between motivation, professional skills, and financial support systems, as well as their impact on the development of entrepreneurship. In addition, the role of institutional factors, public policy, and the level of social trust is revealed. The results of the study substantiate the effectiveness of a comprehensive approach and include developed theoretical insights and practical recommendations. This article provides a sociological analysis of the interconnection between motivation, skills, and financial support systems within the “Every Family is an Entrepreneur” social movement, highlighting their role in developing family entrepreneurship, increasing employment, and stabilizing household incomes.

**Keywords:** entrepreneurship, motivation, skills, financial support, social policy, institutional approach, family, economy, employment.

### KIRISH

Bugungi kunda aholi bandligini ta'minlash, kambag'allikni qisqartirish va iqtisodiy faollikni oshirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. Shu nuqtai nazardan, “Har bir oila tadbirkor” ijtimoiy harakati aholini tadbirkorlikka jalb qilishning samarali institutsional mexanizmi sifatida shakllanib, xalqchil tizimga aylanib bormoqda.

Mazkur harakat nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy ahamiyatga ham ega bo'lib, u oilalarning daromad manbalarini diversifikatsiya qilish, mehnat resurslaridan samarali foydalanish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

“Har bir oila tadbirkor” ijtimoiy harakati aholining iqtisodiy faolligini oshirish, kambag'allikni qisqartirish va oilalar daromad manbalarini diversifikatsiya qilishga qaratilgan muhim institutsional mexanizm hisoblanadi. Ushbu jarayonda tadbirkorlikni rivojlantirishning asosiy omili sifatida motivatsiya alohida ahamiyat kasb etadi. Ichki motivatsiya (mustaqillikka intilish, o'zini namoyon qilish) va tashqi motivatsiya (davlat imtiyozlari, subsidiyalar) o'zaro uyg'un holda aholini faollikka undaydi. Shu bilan birga, davlat dasturlariga nisbatan ijtimoiy ishonchning mavjudligi ishtirok darajasini oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-iyundagi “Har bir oila tadbirkor” dasturini amalga oshirish to'g'risida” gi PQ 3777-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 2019-yil 24-oktyabrdagi “Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish davlat dasturlari doirasida amalga oshirilayotgan loyihalarni kreditlash tartibini takomillashtirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida” gi PQ-4498-son qarori, shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-maydagi “Har bir oila – tadbirkor” dasturini moliyalashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” gi PQ-4720-son qarorlari asosida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

### METODOLOGIYA

“Har bir oila tadbirkor” ijtimoiy harakatining samaradorligini baholash va uning asosiy tarkibiy omillarini aniqlash maqsadida kompleks metodologik yondashuv qo'llanildi. Xususan, tizimli tahlil usuli orqali motivatsiya, kasbiy ko'nikmalar va moliyaviy qo'llab-quvvatlash o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik yaxlit tizim sifatida o'rganildi. Shu bilan birga, institutsional yondashuv asosida

davlat siyosatining ta'siri, mavjud me'yoriy-huquqiy baza va ijtimoiy institutlarning rolini tahlil qilishga alohida e'tibor qaratildi. Sotsiologik yondashuv esa aholining tadbirkorlikka bo'lgan munosabati, motivatsiya darajasi va ijtimoiy ishonch omillarini aniqlash imkonini berdi.

Mazkur tadqiqot ijtimoiy-iqtisodiy sotsiologiya, inson kapitali va motivatsiya nazariyalarining integratsiyasiga asoslanadi. Ushbu yondashuv oilaviy tadbirkorlikni kompleks ijtimoiy jarayon sifatida tahlil qilish imkonini beradi.

Avvalo, tadqiqotning nazariy asosini motivatsiya nazariyasi tashkil etadi. Abraham Maslowning ehtiyojlar ierarxiyasiga ko'ra, insonning iqtisodiy faolligi uning asosiy va yuqori darajadagi ehtiyojlarini qondirishga intilishi bilan bog'liq. Shu nuqtai nazardan, "Har bir oila tadbirkor" dasturida ishtirok etish oilalarning iqtisodiy mustaqillikka erishish va o'zini ro'yobga chiqarish ehtiyojlari bilan izohlanadi.

Shuningdek, inson kapitali nazariyasi muhim ahamiyatga ega. Gary Becker ta'kidlaganidek, bilim, ko'nikma va malaka iqtisodiy samaradorlikning asosiy manbai hisoblanadi. Demak, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish oilalarning daromadlarini oshirish va barqaror biznes yuritish imkoniyatini kengaytiradi.

Ijtimoiy kapital nazariyasi ham tadqiqotda muhim o'rin tutadi. Robert Putnam fikricha, ijtimoiy aloqalar, ishonch va hamkorlik darajasi iqtisodiy faollikka bevosita ta'sir ko'rsatadi. Oilaviy tadbirkorlikda mahalla, qarindoshlik va ijtimoiy tarmoqlar orqali shakllanadigan ijtimoiy kapital muhim resurs vazifasini bajaradi.

Bundan tashqari, institutsional yondashuv tadqiqotning yana bir muhim nazariy poydevori hisoblanadi. Ushbu yondashuvga ko'ra, davlat tomonidan yaratilayotgan moliyaviy mexanizmlar (imtiyozli kreditlar, subsidiyalar) va tashkiliy qo'llab-quvvatlash tadbirkorlik faolligini rag'batlantiruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Shu tariqa, tadqiqotning nazariy asoslari motivatsiya, inson kapitali, ijtimoiy kapital va institutsional yondashuvlar sintezi orqali shakllantirildi. Bu esa "Har bir oila tadbirkor" dasturida motivatsiya, ko'nikma va moliyaviy ko'mak tizimining o'zaro bog'liqligini har tomonlama tahlil qilish imkonini beradi.

### **ASOSIY QISM**

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Eng muhimi, islohotlarimiz samarasini yurtimizda yashayotgan har bir inson, har bir oila bugun o'z hayotida his etishi kerak. Buning uchun barcha bo'g'indagi rahbarlar foizlar, raqamlar, qog'ozning ortidan quvmasdan, har bir fuqaro uchun, uning hayotiy manfaatlarini ta'minlash uchun ishlashi shart. Shunda nuroniy keksalarimiz, muhtaram otaxon va onaxonlarimiz, hurmatli ayollarimiz, aziz farzandlarimiz, jajji nabiralarimiz, ko'pmillatli butun xalqimiz bizdan rozi bo'ladi" [4].

Tadbirkorlik faoliyati samaradorligi faqat motivatsiya bilan cheklanmay, balki zarur bilim va amaliy ko'nikmalar bilan ta'minlanishi lozim. Moliyaviy savodxonlik, biznes rejalashtirish, marketing va raqamli texnologiyalardan foydalanish kabi ko'nikmalarni shakllantirish maxsus ta'lim dasturlari, kasb-hunar markazlari va amaliy treninglar orqali amalga oshiriladi. Bu jarayonda nazariy bilimlarni amaliyot bilan uyg'unlashtirish, ustoz-shogird tizimini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.


G.S.Bekker fikriga ko'ra, "Insonning bilim va ko'nikmalari uning iqtisodiy samaradorligini oshiruvchi asosiy resurs hisoblanadi" [5]. Ushbu yondashuvga ko'ra, kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirish nafaqat shaxsning individual muvaffaqiyatini, balki jamiyatning iqtisodiy taraqqiyotini ham ta'minlaydi. Shu bois tadbirkorlik faoliyatida zarur bilim va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, David Kolb tajribaviy o'qitish nazariyasida ko'nikmalar quyidagicha izohlanadi. D.A.Kolbning fikriga ko'ra "Ko'nikma — bu tajriba orqali shakllanadigan va amaliy faoliyatda namoyon bo'ladigan qobiliyatdir" [6]. Bu fikrga ko'ra, ko'nikmalarni shakllantirishda amaliy mashg'ulotlar, tajriba va faol ishtirok hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Shu bilan birga, moliyaviy ko'mak tizimi – imtiyozli kreditlar, subsidiyalar va mikromoliyalash vositalari orqali tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashning asosiy omili hisoblanadi. Biroq motivatsiya, ko'nikma va moliyaviy resurslar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik

ta'minlanmasa, kutilgan natijaga erishish qiyin. Shu bois, ushbu omillarni integratsiya qilgan holda kompleks yondashuvni joriy etish, moliyaviy savodxonlikni oshirish va institutsional qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish tadbirkorlikni barqaror rivojlantirishning muhim sharti hisoblanadi.

Tadbirkorlik faoliyatining muvaffaqiyati uchta asosiy omilga bog'liq (1-chizma):



**1-chizma. Tadbirkorlik faoliyatining muvaffaqiyati uchta asosiy omilga bog'liqligi**

Prezidentimiz “Biz kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha oldimizga katta marralarni qo‘ydik. Ularga erishish uchun tadbirkorlarga yangi-yangi imkoniyat va sharoitlar yaratamiz. Shu maqsadda kichik va o‘rta biznesni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha bank bilan hamkorlikni yanada kengaytirishdan manfaatdormiz” [7.], - deb ta’kidlagan edilar.

“Har bir oila tadbirkor” ijtimoiy harakati zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u aholini tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilish orqali daromad manbalarini diversifikatsiya qilishga qaratilgan. Ushbu harakatning konseptual asosi shundan iboratki, har bir oila iqtisodiy faol sub’ekt sifatida qaraladi va uning imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish orqali milliy iqtisodiyotni rivojlantirishga erishiladi. Bu esa aholi bandligini ta‘minlash, kambag‘allikni qisqartirish va ijtimoiy tenglikni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur harakat doirasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, avvalo, ishsizlik darajasini pasaytirishga xizmat qiladi. Chunki tadbirkorlik faoliyati orqali yangi ish o‘rinlari yaratiladi va aholining o‘z-o‘zini band qilish imkoniyatlari kengayadi. Shu bilan birga, oilalarning iqtisodiy mustaqilligi oshadi, bu esa ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlashda muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Mahalliy darajada esa kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi hududiy iqtisodiyotni jonlantirib, ichki bozorni tovar va xizmatlar bilan ta‘minlashga xizmat qiladi.

Eng muhimi, mazkur harakat tadbirkorlikni faqat iqtisodiy faoliyat sifatida emas, balki ijtimoiy institut sifatida talqin etadi. Ya’ni tadbirkorlik aholining turmush tarzi, qadriyatlari va ijtimoiy munosabatlar tizimiga chuqur singib boradi. Bu esa uzoq muddatli istiqbolda tadbirkorlik madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Tadbirkorlik faoliyatini boshlash va uni muvaffaqiyatli rivojlantirishda motivatsiya hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Motivatsiya insonning ichki ehtiyojlari va tashqi omillar ta’sirida shakllanib, uni muayyan iqtisodiy faoliyatga undaydi. “Har bir oila tadbirkor” harakati doirasida aholini tadbirkorlikka jalb qilishda motivatsiyaning kompleks tizimini shakllantirish zarur hisoblanadi.

Ichki motivatsiya shaxsning o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish, mustaqil qaror qabul qilish va iqtisodiy erkinlikka erishish istagi bilan bog‘liq. Bunday motivatsiya barqaror va uzoq muddatli bo‘lib, tadbirkorlik faoliyatining davomiyligini ta‘minlaydi. Tashqi motivatsiya esa davlat tomonidan taqdim etiladigan imtiyozlar, subsidiyalar, soliq yengilliklari va boshqa rag‘batlantirish

choralari orqali shakllanadi. Ushbu ikki turdagi motivatsiya o‘zaro uyg‘unlashgan holda aholining tadbirkorlikka bo‘lgan qiziqishini kuchaytiradi.

Ijtimoiy ishonch ham motivatsiyaning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Agar aholi davlat dasturlari va moliyaviy institutlarga ishonsa, ular tadbirkorlik faoliyatida faol ishtirok etadi. Shu bois axborot siyosati, shaffoflik va ochiqlik tamoyillari motivatsiyani oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, muvaffaqiyatli tadbirkorlar tajribasini ommalashtirish, trening va seminarlar tashkil etish orqali aholining ishonch va qiziqishini yanada kuchaytirish mumkin.

Tadbirkorlik faoliyati faqat xohish va motivatsiya bilan cheklanmaydi, balki muayyan bilim va amaliy ko‘nikmalarni talab etadi. Shu nuqtai nazardan, kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirish tizimi tadbirkorlikni rivojlantirishning asosiy sharti hisoblanadi. Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida tadbirkor moliyaviy savodxonlik, biznes rejalashtirish, marketing strategiyalari va raqamli texnologiyalardan foydalanish kabi ko‘nikmalarga ega bo‘lishi lozim.

Bu ko‘nikmalarni shakllantirishda ta‘lim tizimi muhim o‘rin tutadi. Qisqa muddatli kurslar, kasb-hunar markazlari va onlayn ta‘lim platformalari aholining bilim darajasini oshirishda samarali vosita hisoblanadi. Ayniqsa, amaliyotga yo‘naltirilgan ta‘lim usullari tadbirkorlik ko‘nikmalarini tez va samarali o‘zlashtirish imkonini beradi. Shu bilan birga, ustoz-shogird tizimi orqali amaliy tajriba almashish tadbirkorlik faoliyatida muvaffaqiyatga erishishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Prezident Sh.M.Mirziyoyev “Iqtisodiy siyosatimizning asosiy tamoyillaridan biri – har bir fuqaro boy bo‘lsa – davlat boy bo‘ladi, har bir oila farovon bo‘lsa – mamlakat farovon bo‘ladi. Yangi O‘zbekistonni halol mehnat qilib muvaffaqiyatga erishishni orzu qiladigan, tadbirkorlik orqali o‘zi va oilasi farovonligini ta‘minlashga intiladigan, Vatani va xalqiga sidqidildan xizmat qilishni istaydigan barcha fuqarolar uchun keng imkoniyatlar mamlakatiga aylantirishimiz zarur” [8], deb ta‘kidlagan edi.

Nazariy bilimlarni amaliyot bilan uyg‘unlashtirish orqali tadbirkorlik faoliyatining samaradorligi oshadi. Stajirovkalar, pilot loyihalar va amaliy mashg‘ulotlar orqali ishtirokchilar real biznes muhitini his qilish imkoniga ega bo‘ladi. Bu esa ularning mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

**“Motivatsiya – ko‘nikma – moliyaviy ko‘mak” tizimi ijtimoiy harakat sifatida kompleks yondashuvni ifodalaydi va uning samaradorligi bir nechta muhim jihatlar bilan belgilanadi:**

Birinchi jihat — kompleks va o‘zaro bog‘liqlik xususiyati. Mazkur modelda motivatsiya, ko‘nikma va moliyaviy resurslar bir-birini to‘ldiruvchi elementlar sifatida namoyon bo‘ladi. Ya‘ni shaxsda kuchli motivatsiya bo‘lmasa, mavjud resurslar samarasiz sarflanadi, ko‘nikmalar yetishmasa esa moliyaviy imkoniyatlardan to‘g‘ri foydalanish qiyinlashadi. Shu bois ushbu tizim yaxlit holda amal qilganda yuqori natija beradi.

Ikkinchi jihat — inson kapitaliga yo‘naltirilganlik. Bu yondashuvda asosiy e‘tibor insonning bilim, ko‘nikma va qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratiladi. Natijada faqat qisqa muddatli daromad emas, balki uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlik ta‘minlanadi.

Uchinchi jihat — ijtimoiy faollikni oshirish. Ushbu tizim aholini passiv iste‘molchidan faol iqtisodiy sub‘ektga aylantiradi. Bu orqali oilalar o‘z tashabbusini namoyon qiladi, yangi biznes g‘oyalar paydo bo‘ladi va jamiyatda tadbirkorlik madaniyati shakllanadi.

To‘rtinchi jihat — moliyaviy inklyuziyani ta‘minlash. Imtiyozli kreditlar, subsidiyalar va mikromoliyalash orqali aholining turli qatlamlari iqtisodiy imkoniyatlarga ega bo‘ladi. Bu esa iqtisodiy tenglikni mustahkamlash va kambag‘allikni qisqartirishga xizmat qiladi.

Beshinchi jihat — barqaror rivojlanishga xizmat qilishi. Motivatsiya, ko‘nikma va moliyaviy ko‘makning uyg‘unligi natijasida tadbirkorlik faoliyati uzluksiz va samarali rivojlanadi. Bu esa nafaqat alohida oilalar, balki butun jamiyat iqtisodiy taraqqiyotiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

**2-chizma. “Motivatsiya – ko‘nikma – moliyaviy ko‘mak” tizimi samaradorligining bir nechta muhim jihatlari**

Tadbirkorlikni rivojlantirishda moliyaviy resurslar hal qiluvchi ahamiyatga ega. “Har bir oila tadbirkor” harakati doirasida imtiyozli kreditlar, subsidiyalar, grantlar va mikromoliyalash mexanizmlari orqali aholining moliyaviy imkoniyatlari kengaytirilmoqda. Bu esa tadbirkorlik faoliyatini boshlash va uni kengaytirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

Imtiyozli kreditlar past foiz stavkalari, uzoq muddatli qaytarish imkoniyatlari va yengillashtirilgan garov talablari bilan ajralib turadi. Bu esa aholi, ayniqsa, kam ta’minlangan qatlam uchun tadbirkorlik faoliyatini boshlashni osonlashtiradi. Biroq moliyaviy inklyuziya sohasida hali ham qator muammolar mavjud. Jumladan, moliyaviy savodxonlikning pastligi, kredit olish jarayonidagi byurokratik to’siqlar va risklarni baholash muammolari tadbirkorlikni rivojlantirishga salbiy ta’sir ko’rsatadi.

Shu bois moliyaviy qo’llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish, uning shaffofligi va ochiqqligini ta’minlash hamda aholi uchun qulay shartlarni yaratish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, motivatsiya, kasbiy ko’nikmalar va moliyaviy resurslar o’zaro bog’liq bo’lgan holdagina samarali natija beradi. Agar shaxsda kuchli motivatsiya mavjud bo’lsa-yu, ammo zarur ko’nikmalar yetishmasa, uning faoliyati samarasiz bo’ladi. Xuddi shuningdek, moliyaviy resurslar mavjud bo’lsa-da, motivatsiya va bilim yetishmasa, bu resurslardan samarali foydalanish imkoni cheklanadi.

A.Maslou “Inson doimo o’z ehtiyojlarini qondirishga intiladi va qondirilgan ehtiyojlar uning keyingi faoliyati uchun motivatsiya manbai bo’lib xizmat qiladi” [9], deb ta’kidlaydi. Ushbu yondashuvga ko’ra, motivatsiya insonning ichki ehtiyojlari bilan chambarchas bog’liq bo’lib, tadbirkorlik faoliyatida ham shaxsning iqtisodiy faolligini rag’batlantiruvchi asosiy omil hisoblanadi.

Shuning uchun kompleks yondashuvni joriy etish muhim ahamiyatga ega. Bunda ta’lim, moliyalashtirish va maslahat xizmatlari bir-biri bilan uyg’unlashtirilishi lozim. Raqamli platformalar orqali tadbirkorlarga axborot, maslahat va moliyaviy xizmatlarni taqdim etish bu jarayonni yanada samarali qiladi. Shu bilan birga, ijtimoiy kapital ishonch, hamkorlik va tarmoq aloqalari ham tadbirkorlikni rivojlantirishda muhim rol o’ynaydi.

Olimlar E. L.Desi va R.M.Rayan ta’kidlaganidek “Eng barqaror va samarali motivatsiya insonning ichki qiziqishi va avtonomiya hissiga asoslanadi” [10]. Ushbu fikrga ko’ra, shaxsning mustaqil qaror qabul qilish imkoniyati va ichki qiziqishi kuchli bo’lsa, uning faoliyati ham samarali va uzoq muddatli bo’ladi. Bu esa tadbirkorlik faoliyatida ichki motivatsiyaning ustuvor ahamiyatga ega ekanini ko’rsatadi.

Mazkur sohada bir qator muammolar mavjud bo’lib, ular tadbirkorlik faoliyatining to’liq rivojlanishiga to’sqinlik qiladi. Jumladan, aholida tadbirkorlik madaniyatining yetarli darajada shakllanmaganligi, zarur ko’nikmalarning yetishmasligi, moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatining cheklanganligi va axborot tanqisligi asosiy muammolar qatoriga kiradi.

Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin: tadbirkorlik ta’limini oila va maktab bosqichidan boshlab joriy etish, raqamli ta’lim va moliyaviy xizmatlar platformalarini kengaytirish, moliyaviy savodxonlikni oshirish dasturlarini kuchaytirish, mikrokreditlash tizimini soddalashtirish va mahalliy darajada biznes-inkubatorlar tashkil etish. Bu chora-tadbirlar tadbirkorlik muhitini yaxshilash va aholining iqtisodiy faolligini oshirishga xizmat qiladi.

## **XULOSA**

“Har bir oila tadbirkor” ijtimoiy harakati aholining iqtisodiy faolligini oshirish, oilalar daromadini ko’paytirish va kambag’allikni qisqartirishda muhim ijtimoiy-iqtisodiy mexanizm sifatida namoyon bo’lmoqda. Tadqiqot natijalari ushbu jarayonning samaradorligi ko’p jihatdan aholining tadbirkorlikka bo’lgan motivatsiyasi, ya’ni ichki intilish va tashqi rag’batlantirish omillarining uyg’unligiga bog’liq ekanini ko’rsatdi. Shuningdek, ijtimoiy ishonch darajasi ham ishtirok faolligini belgilab beruvchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Ikkinchidan, tadbirkorlikni rivojlantirishda kasbiy ko’nikmalarning ahamiyati yuqori ekani aniqlandi. Faqatgina moliyaviy resurslarni ajratish yetarli emas, balki aholini zamonaviy biznes yuritish ko’nikmalari, moliyaviy savodxonlik va raqamli texnologiyalardan foydalanishga o’rgatish

zarur. Bu esa ta'lim tizimi, qayta tayyorlash kurslari va amaliy treninglarni yanada takomillashtirishni talab etadi.

Uchinchidan, moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimi tadbirkorlik faoliyatini boshlash va rivojlantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lsa-da, uning samaradorligi uning shaffofligi, ochiqdigi va aholi uchun qulayligiga bog'liq. Imtiyozli kreditlar, subsidiyalar va mikromoliyalash mexanizmlarini soddalashtirish hamda ulardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish tadbirkorlik muhitini yaxshilashga xizmat qiladi.

To'rtinchidan, tadqiqot shuni ko'rsatdiki, motivatsiya, ko'nikma va moliyaviy resurslar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ta'minlagan kompleks yondashuv eng samarali hisoblanadi. Shu bois, kelgusida mazkur yo'nalishda institutsional islohotlarni chuqurlashtirish, ijtimoiy ishonchni mustahkamlash va innovatsion qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini joriy etish orqali "Har bir oila tadbirkor" harakatining barqaror rivojini ta'minlash mumkin.

### Adabiyotlar/ Literatura/ References:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2023 yil yangi tahriri). – Toshkent: O'zbekiston, 2023. – 72 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. -592 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. — Toshkent: O'zbekiston, 2017. — 56 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. 4-tom. Milliy tiklanishdan-milliy yuklanish sari. M 54. – Toshkent: «O'zbekiston» NMIU, 2020. – B. 43.
5. Bekker G. S. Inson kapitali: nazariy va empirik tahlil. – Chikago: University of Chicago Press, 1964. – 187 b.
6. Kolb D. A. Tajriba asosida o'qitish: o'qish va rivojlanish nazariyasi. – Englvud Klifs: Prentice Hall, 1984. – 256 b.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki Boshqaruvchilar kengashi yig'ilishidagi nutq. 17.05.2023 y.
8. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasi. 2023 y. – B. 144.
9. Maslow A. H. Motivation and Personality. – New York: Harper & Row, 1954. – 411 p.
10. Deci E. L., Ryan R. M. Intrinsic Motivation and Self-Determination in Human Behavior. – New York: Plenum Press, 1985. – 371 p.

# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

**Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**  
ООО Тадқиқот город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000